

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 40 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinovna	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Pulatov Dilshod Haqberdiyevich

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
huzuridagi Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti
direktorining birinchi o'rinbosari, i.f.d., professor
Email: Dilshod.Pulatov@ifs.imv.uz;



Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi huzuridagi
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti,
Budjet siyosati va budjetlararo
munosabatlarni takomillashtirish
loyihasi bo'limi yetakchi mutaxassisi
Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti,
amaliy iqtisodiyot yo'nalishi magistranti
Email: ulugovamaftunabonu@gmail.com;
ORCID ID: 0009-0007-0982-1197

Annotatsiya. Ushbu maqola rasmiy rivojlanish yordami (Official Development Assistance, ODA)ning davlat moliyasini boshqarish (Public Financial Management, PFM) tizimlarini takomillashtirishdagi konseptual rolini tahlil qiladi. Tadqiqot xalqaro tashkilotlar (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD; International Monetary Fund, IMF; World Bank) yondashuvlari asosida budjet jarayonlari, fiskal intizom, davlat xarajatlarining samaradorligi va hisobdorlikni kuchaytirishda ODA (Official Development Assistance)ning institutsional ahamiyatini baholaydi. Maqolada PFM (Public Financial Management) sohasida yordamning ta'sir mexanizmlari, ularning amalga oshirilishiga ta'sir etuvchi siyosiy va institutsional omillar hamda rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb bo'lgan tizimli muammolar yoritiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, PFM (Public Financial Management)ga yo'naltirilgan ODA (Official Development Assistance) iqtisodiy samaradorlik, barqaror fiskal boshqaruv va davlat xarajatlarining natijadorligini oshirishda muhim omil bo'lib, uning muvaffaqiyati aynan institutsional tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Maqola donorlar va qabul qiluvchi davlatlar uchun PFM (Public Financial Management) islohotlari bo'yicha strategik tavsiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: rasmiy rivojlanish yordami, davlat moliyasini boshqarish, fiskal intizom, budjet islohotlari, institutsional rivojlanish, davlat budjeti, fiskal barqarorlik, institutsional islohotlar, raqamlashtirish, budjet shaffofligi, donor yordamining samaradorligi, davlat xarajatlari boshqaruvi, fiskal risklar, o'rta muddatli budjet rejasi.



Abstract. This article provides a conceptual assessment of Official Development Assistance (ODA) directed toward Public Financial Management (PFM) reforms. Drawing on Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), International Monetary Fund (IMF), and World Bank frameworks, the study examines how aid contributes to improvements in fiscal discipline, budget credibility, expenditure efficiency, transparency, and accountability. The paper analyses the core mechanisms through which ODA influences PFM systems, the institutional and political constraints affecting reform outcomes, and the structural challenges faced by developing countries. The findings indicate that ODA dedicated to PFM plays a vital role in strengthening economic governance, enhancing resource allocation, and improving long-term fiscal sustainability, while its success largely depends on institutional capacity, reform ownership, and policy coherence. The article concludes with policy recommendations for donors and recipient governments aimed at advancing effective PFM reforms.

Keywords: Official Development Assistance (ODA), Public Financial Management (PFM), fiscal discipline, budget reforms, institutional development, government budget, fiscal sustainability, institutional reforms, digitalization, budget transparency, aid effectiveness, Public Expenditure Management, fiscal risks, Medium-Term Budget Planning.

Аннотация. В статье представлена концептуальная оценка роли официальной помощи развитию (Official Development Assistance, ODA), направленной на реформирование систем управления государственными финансами (Public Financial Management, PFM). На основе подходов ОЭСР, МВФ и Всемирного банка анализируется вклад донорской помощи в повышение бюджетной дисциплины, результативности государственных расходов, прозрачности и подотчётности. В работе рассматриваются механизмы воздействия помощи на PFM (Public Financial Management)-системы, институциональные и политические факторы, влияющие на успешность реформ, а также структурные проблемы развивающихся стран. Результаты показывают, что помощь, ориентированная на PFM (Public Financial Management), играет ключевую роль в укреплении экономического управления и обеспечении долгосрочной фискальной устойчивости, однако её эффективность зависит от институциональной готовности и согласованности реформ. В статье сформулированы рекомендации для доноров и государств-получателей по совершенствованию реформ PFM (Public Financial Management).

Ключевые слова: официальная помощь развитию, управление государственными финансами, фискальная дисциплина, бюджетные реформы, институциональное развитие, государственный бюджет, фискальная устойчивость, институциональные реформы, цифровизация, прозрачность бюджета, эффективность помощи, управление государственными расходами, фискальные риски, среднесрочное бюджетное планирование.

KIRISH

Rasmiy rivojlanish yordami (Official Development Assistance, ODA) O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ayniqsa davlat moliyasini boshqarish (Public Financial Management, PFM) sohasidagi keng qamrovli modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda yetakchi o'rinni egallaydi. So'nggi yillarda mamlakat fiskal shaffoflikni kuchaytirish, budjet jarayonlarini raqamlashtirish, o'rta muddatli budjet rejalashtirishni joriy qilish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va davlat moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish bo'yicha sezilarli islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonlarning aksariyati XVJ, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi va Osiyo taraqqiyot banki kabi donorlar tomonidan texnik yordam, grantlar, konsultativ dasturlar va institutsional salohiyatni oshirish loyihalari orqali qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, PFM (Public Financial Management) tizimini modernizatsiya qilish davlatning fiskal barqarorligi, samarali resurs taqsimoti, davlat qarzini boshqarish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. ODA (Official Development Assistance) esa ushbu islohotlarni tezlashtirish, institutsional bo'shliqlarni to'ldirish va global standartlarga mos infratuzilmani shakllantirish imkonini beradi. Mazkur maqolada aynan O'zbekiston sharoitida ODA (Official Development Assistance)ning PFM (Public Financial Management) islohotlariga qo'shayotgan konseptual hissasi baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar PFM (Public Financial Management)ni to'rtta asosiy blok orqali tavsiflaydi:

- (1) budjet rejalashtirish;
- (2) budjet ijrosi va xarajatlarni boshqarish;
- (3) fiskal shaffoflik va hisobdorlik¹;
- (4) davlat qarzini boshqarish².

¹ https://doi.org/10.31435/rsglobal_ijite/31032019/6373

² <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=86148>

OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) (2019) ODA (Official Development Assistance)ning PFM (Public Financial Management) islohotlaridagi muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq ekanini ta'kidlaydi: siyosiy iroda, hisobdor institutlar, texnik salohiyat va donorlar strategiyasining muvofiqligi. XVJ va Jahon banki esa fiskal shaffoflikni mustahkamlashning birinchi sharti sifatida PFM (Public Financial Management) tizimining raqamlashtirilishi, o'rta muddatli budjet doirasi (Medium-Term Budget Framework, MTBF) va xalqaro standartlardagi davlat moliyaviy statistikasi (Government Finance Statistics, GFS)ga o'tishni ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotchilarning ham bu borada kashf qilgan natijalari o'rganildi. Allen & Tommasi (2001), De Renzio (2011), Pretorius & Pretorius (2008) kabi tadqiqotlarda ODA (Official Development Assistance) yordamining PFM (Public Financial Management) sohasidagi samaradorligi institutsional salohiyat va yordamni o'zlashtirish qobiliyatiga yuqori darajada bog'liq ekanini qayd etilgan. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshiriladigan budjetni qo'llab-quvvatlash dasturlari davlat xarajatlarning shaffofligi va fiskal boshqaruvni kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy manbalarda tasdiqlangan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar ODA (Official Development Assistance)ning PFM (Public Financial Management) islohotlaridagi roli yuqori bo'lishi mumkinligini, ammo bu natijalar institutsional muhitga qarab keskin farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda empirik tahlil emas, balki konseptual va nazariy yondashuv qo'llanilgan. Metodologiya quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro PFM (Public Financial Management) standartlarini tahlil qilish: PEFA (Public Expenditure and Financial Accountability Assessment Framework), GFS (Government Finance Statistics), IPSAS (International Public Sector Accounting Standards), MTBF (Medium-Term Budget Framework), MTEF (Medium-Term Expenditure Framework).

2. ODA (Official Development Assistance)ning PFM (Public Financial Management)ga ta'sir mexanizmlarini aniqlash: texnik yordam, salohiyatni oshirish, budjet qo'llovi.

3. O'zbekistonning fiskal islohotlarini xalqaro tajriba bilan solishtirish: OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development), XVJ, Jahon banki tavsiyalariga moslik.

4. PFM (Public Financial Management) samaradorligiga ta'sir qiluvchi ichki omillarni baholash: institutsional muhit, shaffoflik, budjet intizomi, raqamlashtirish darajasi.

Mazkur metod PFM (Public Financial Management) tizimini ODA (Official Development Assistance) orqali konseptual mustahkamlash imkoniyatlarini tahlil qilish uchun yetarli asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

ODA (Official Development Assistance)ning PFM (Public Financial Management) tizimidagi roli xalqaro tajribada to'rtta asosiy mexanizm orqali namoyon bo'ladi. Birinchi yo'nalish — bu budjet rejalashtirish va o'rta muddatli fiskal doirani takomillashtirishdir. XVJ va Jahon banki tomonidan berilayotgan texnik yordam natijasida O'zbekiston o'rta muddatli budjet rejalashtirish tizimini joriy etishni boshlagan bo'lib, ushbu jarayonda ODA (Official Development Assistance) fiskal prognozlarni takomillashtirish, daromadlarni prognozlash metodikasini ishlab chiqish, budjet tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish hamda xarajatlarning o'rta muddatli istiqbolda ustuvorlik asosida shakllantirilishiga ko'mak beradi.

Ikkinchi yo'nalish — budjet ijrosi va davlat xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirishdir. ODA (Official Development Assistance) PFM (Public Financial Management)ning ushbu segmentida xarajatlarni raqamlashtirilgan nazorat tizimlari orqali boshqarishni rivojlantirish, davlat xaridlarida shaffoflikni kengaytirish, ichki audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va natijaviylikka asoslangan budjetlashtirish tamoyillarini amaliyotga joriy etish orqali islohotlarni faol qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchi yo'nalish — fiskal shaffoflikni oshirish va davlat hisobotlarini modernizatsiya qilishdir. Donorlar tomonidan ilgari surilayotgan IPSAS (International Public Sector Accounting Standards)ga yaqinlashtirish tashabbuslari davlat moliyaviy hisobotlarining sifatini oshiradi, davlat qarzi, budjet defitsiti va fiskal risklar bo'yicha aniqroq tasvir beradi, shuningdek, ochiq ma'lumotlar platformalarini joriy etishga xizmat qiladi. Bu esa fiskal boshqaruvning ochiqligini ta'minlab, jamoatchilik va nazorat organlarining hisobotlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

To'rtinchi yo'nalish — davlat qarzini boshqarish va fiskal risklarni baholash jarayonini takomillashtirishdir. ODA (Official Development Assistance) ushbu yo'nalishda qarz barqarorligini baholash metodikalarini ishlab chiqishga, davlat kafolatlari ustidan nazoratni kuchaytirishga, qarz portfelini diversifikatsiya qilish strategiyalarini shakllantirishga hamda fiskal risklarni muntazam monitoring qilish tizimini yaratishga yordam beradi.



PFM (Public Financial Management) islohotlarining samaradorligi qaysi sharoitlarda yuqori bo'lishi mumkinligi ham xalqaro tajribada aniq ko'rsatib o'tiladi. Eng avvalo, islohotlar muvaffaqiyati siyosiy irodaga bog'liq bo'lib, siyosiy qo'llab-quvvatlash kuchli bo'lgan holatlarda PFM (Public Financial Management) tizimidagi o'zgarishlar izchil va barqaror natija beradi. Bundan tashqari, institutlarning hisobdorligi yuqori bo'lganda, korrupsiya past darajada bo'lganda, budget jarayonlari to'liq raqamlashtirilgan sharoitlarda va ODA (Official Development Assistance) milliy ustuvorliklar bilan moslashgan taqdirda PFM (Public Financial Management) islohotlari ancha samarali bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida ayniqsa raqamlashtirish, fiskal shaffoflikni oshirish va o'rta muddatli budgetni rejalashtirish yo'nalishlarida sezilarli ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning PFM (Public Financial Management) modernizatsiyasi ODA (Official Development Assistance) bilan uyg'un holda samarali davom etayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ODA (Official Development Assistance) O'zbekistonda PFM (Public Financial Management) tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim tashqi omillaridan biri bo'lib, uning institutsional islohotlarga yo'naltirilishi fiskal shaffoflikni kuchaytirishga, budget xarajatlari samaradorligini oshirishga va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu xulosalar asosida bir nechta strategik takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi, ODA (Official Development Assistance) resurslarini PFM (Public Financial Management)ning eng muhim yo'nalishlariga yo'naltirish zarur. Bu yo'nalishlar o'rta muddatli fiskal doirani takomillashtirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish, ichki audit va davlat xaridlari tizimini mustahkamlash, shuningdek davlat qarzini boshqarish amaliyotlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Mazkur sohalarga yo'naltirilgan donor yordami PFM (Public Financial Management) tizimining tizimli va barqaror isloh qilinishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi, raqamli PFM (Public Financial Management) infratuzilmasini kengaytirish zarurati dolzarbdir. Yagona budget axborot tizimini takomillashtirish, xarajatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratish va ochiq budget portalini rivojlantirish fiskal shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi. Raqamlashtirishning chuqurlashuvi budget jarayonlarining sifatini oshiradi hamda korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi.

Uchinchi, donorlar strategiyasini milliy ustuvorliklar bilan to'liq uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda ODA (Official Development Assistance) loyihalarini Budget kodeksi va Fiskal strategiya bilan muvofiqlashtirish, takrorlanuvchi yoki dublikat tashabbuslarni kamaytirish, donorlarning ustuvorliklari bilan hukumatning o'z strategik maqsadlari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash zarur.

To'rtinchi, PFM (Public Financial Management) bo'yicha institutsional salohiyatni oshirish barqaror islohotlarning ajralmas sharti hisoblanadi. Bu yo'nalishda malaka oshirish dasturlarini kengaytirish, o'quv markazlarini rivojlantirish va xalqaro ta'lim modullarini amaliyotga joriy etish muhimdir. Kadrlar salohiyatining oshishi PFM (Public Financial Management) tizimining mustahkam va barqaror ishlashiga bevosita ta'sir qiladi.

Beshinchi, ODA (Official Development Assistance) loyihalari samaradorligini baholash uchun yagona raqamli platforma yaratish talab etiladi. Bunday platforma indikatorlar asosida baholash mexanizmlarini joriy etish, loyiha ma'lumotlarini ochiq e'lon qilish hamda monitoring tizimini to'liq raqamlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa donor yordami jarayonining shaffofligini oshiradi va natijadorlikni tahlil qilishni ancha osonlashtiradi.

Mazkur takliflar O'zbekistonda PFM (Public Financial Management) tizimini mustahkamlashga, ODA (Official Development Assistance) resurslaridan maqsadli va yuqori samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga hamda xalqaro standartlarga mos fiskal boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pulatov, D. (2019). The law on public procurement-the scope and the procedure of its application in the health care system. International Journal of Innovative Technologies in Economy. https://doi.org/10.31435/rsglobal_ijite/31032019/6373
2. Pulatov, D. (2009). Issues in Development of State Financial Control in Uzbekistan. CEEOL. <https://www.ceeol.com/search/article-detail?id=86148>
3. OECD – Official Development Assistance (ODA) <https://www.oecd.org/dac/financing-sustainable-development/development-finance-standards/official-development-assistance.htm>
4. IMF – Public Financial Management Guidance <https://www.imf.org/en/Topics/public-financial-management>
5. World Bank – Public Expenditure and Financial Accountability (PEFA) <https://www.pefa.org>
6. IMF Fiscal Transparency Code <https://www.imf.org/external/np/fad/trans/index.htm>
7. World Bank – Public Sector Governance <https://www.worldbank.org/en/topic/governance>
8. OECD Budgeting and Public Expenditures <https://www.oecd.org/governance/budgeting/>
9. Allen, R., & Tommasi, D. (2001). Managing Public Expenditure. World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/15223>
10. De Renzio, P. (2011). Aid effectiveness and public finance management. <https://odi.org>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100